

SHARQ ALLOMALARINING GENDER TENGLIGIGA OID IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLARI

Muxtarov Utkirjon Mutalibjonovich

Andijon davlat pedagogika instituti

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Norimonova Gulmira Ulug'bek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti milliy g'oya,

ma'naviyat asoslari vahuquq ta'limi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Sharq allomalari tafakkurida gender tengligi masalasining ijtimoiy-falsafiy mazmunini ochib berishga qaratilgan hisoblanadi. Maqolada qadimiy va o'rta asr Sharq mutafakkirlarining inson, ayniqsa, ayol va erkak o'rtasidagi tabbiy, ma'naviy va ijtimoiy munosabatlarga bergan falsafiy yondashuvlar haqida so'z boradi. Bular orqali ularning fikrlarida gender tengligi masalasining dolzarb va chuqur ildizlarga ega ekanligi haqida bo'ladi. Maqolada Farobiy, Ibn Sino, Al-G'azzoliy, Navoiy, Abdurauf Fitrat kabi allomalarning asarlari asosida ayol shaxsining qadri, bilimga, tarbiyaga va jamiyatdagi faollikka bo'lgan huquqlari yoritiladi. Ayol va erkak o'rtasidagi tenglik masalasi faqat ijtimoiy tenglik doirasida emas, balki ma'naviy yuksaklik, axloqiy mukammallik va komillik sari intilish mezonlari bilan ham bog'liq ekanligi sir emas. Maqolaning asosiy maqsadi-qadimiy va o'rta asr Sharq mutafakkirlarining ayol va erkakning huquqiy, axloqiy va ma'naviy tengligi haqidagi qarashlarini aniqlash hamda ularning bugungi zamonaviy gender muammolari bilan qanday uyg'unlashishini tahlil qilishdan iborat, albatta.

Kalit so'zlar: Sharq allomalari, gender tengligi, ijtimoiy-falsafiy qarashlar, ayol va erkak huquqlari, Farobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, axloqiy qadriyatlar, tarixiy meros, ma'naviy tenglik, Sharq falsafasi, diniy-ma'rifiy tafakkur, madaniy qadriyat.

Abstract: This article is aimed at revealing the socio-philosophical content of the issue of gender equality in the thinking of Eastern scholars. The article discusses the philosophical approaches of ancient and medieval Eastern thinkers to the natural, spiritual and social relations between man and woman. Through this, it is shown that the issue of gender equality has urgent and deep roots in their thoughts. The article sheds light on the value of the female person, her rights to knowledge, education and activity in society, based on the works of such scholars as Al-Farabi, Ibn Sina, Al-Ghazali, Navoi, Abdurauf Fitrat. It is no secret that the issue of equality between women and men is not only related to social equality, but also to the criteria of striving for spiritual elevation, moral perfection and perfection. The main goal of the article is to identify the views of ancient and medieval Eastern thinkers on the legal, moral, and

spiritual equality of women and men, and to analyze how they fit into today's modern gender issues.

Keywords: Eastern scholars, gender equality, socio-philosophical views, women's and men's rights, Farooqi, Ibn Sina, Alisher Navoi, moral values, historical heritage, spiritual equality, Eastern philosophy, religious-enlightenment thought, cultural value.

Аннотация: Целью данной статьи является раскрытие социально-философского содержания проблемы гендерного равенства в мышлении восточных ученых. В статье рассматриваются философские подходы древних и средневековых мыслителей Востока к естественным, духовным и социальным отношениям между людьми, особенно между женщинами и мужчинами. Благодаря этому они поймут, что проблема гендерного равенства актуальна и имеет глубокие корни в их сознании. В статье подчеркивается ценность женщин, их права на знания, образование и общественную деятельность на основе трудов таких ученых, как Аль-Фараби, Ибн Сина, Аль-Газали, Навои и Абдурауф Фитрат. Не секрет, что вопрос равенства женщин и мужчин связан не только с социальным равенством, но и с критериями стремления к духовному возвышению, нравственному совершенству и совершенству. Основная цель статьи — выявить взгляды древних и средневековых мыслителей Востока на правовое, моральное и духовное равенство женщин и мужчин, а также проанализировать, как они вписываются в современную гендерную проблематику.

Ключевые слова: восточные ученые, гендерное равенство, социально-философские взгляды, права женщин и мужчин, Фаруки, Ибн Сина, Алишер Навои, моральные ценности, историческое наследие, духовное равенство, восточная философия, религиозно-просветительская мысль, культурные ценности.

Kirish: Insoniyat taraqqiyoti davomida gender tengligi masalasi ijtimoiy adolat, axloqiy qadriyatlar va huquqiy tamoyillar bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Ayniqsa, ayol va erkak o‘rtasidagi tenglik masalasi jamiyatning ma’naviy, madaniy va intellektual salohiyatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda gender tengligi atamasi keng qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, bu tushuncha Sharq tamaddunida o‘ziga xos shaklda qadimdan mavjud bo‘lgan. Shuningdek, Sharq allomalari tomonidan inson kamoloti, axloqiy yetuklik, adolat va ijtimoiy ma’sulyat bilan bog‘liq holda gender tengligiga oid muhim falsafiy qarashlar mavjud. O‘rta asr Sharq mutafakkirlarining asarlari tahlil qilinganda, ularda ayol shaxsi va uning aqliy salohiyati, ijtimoiy mavqei va ilmga bo‘lgan intilishi qadrlangan, albatta. Farobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Al-G‘azzoliy, Navoiy, Rumi kabi

allomalar o‘z davrining ijtimoiy tuzilmasidan kelib chiqqan holda hamda erkak va ayol o‘rtasidagi tabiiy va ijtimoiy munosabatlarga chuqur falsafiy yondashuv namoyon qilishgan. Ularning qarashlarida gender tengligi masalasi shunchaki, huquqiy tenglik emas, balki axloqiy-ruhiy barkamollikka erishish yo‘lida erkak va ayolning teng ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan.

Sharq allomalari tafakkurida erkak va ayol- bu ikki mavjudot bir-birining to‘ldiruvchisi va jamiyat hayotining ajralmas hamkorlari sifatida qaraladi. Ularning bir-biriga hurmati, e‘tibori va ma’sulyatli munosabatda bo‘lishi jamiyatning barqaror va sog‘lim rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida ayollarni jamiyatning faol a‘zolari sifatida ko‘rsatgan bo‘lsa, Ibn Sino o‘z falsafiy-axloqiy qarashlarida ayollarning aqliy va ma’naviy yetukligiga katta baho bergan, albatta. Alisher Navoiy esa o‘z asarlarida ayol obrazini go‘zallik va sadoqat timsoli, balki donolik, halollik va fidoyilik timsoli sifatida tasvirlab beradi.

Gender tengligi masalasining Sharq mutafakkirlari asarlarida ramziy va falsafiy tarzda bayon qilingani bu mavzuning zamonaviy tahlilini murakkablashtiradi deb o‘ylayman. Ularning asarlarida, ijtimoiy rol tengligi, ma’naviy huquqlar barqarorligi va ilm-fan orqali o‘zini anglash g‘oyalari aniq ravshan ko‘zga tashlanadi. Aynan shu kabilar zamonaviy jamiyatda gender muammolarini hal qilishda va ayollarning ijtimoiy faolligini oshirishda hamda tenglik prinsiplarini amalda qaror toptitishda katta ahamiyatga ega.

Metod: Ushbu tadqiqotda Sharq allomalarining gender tengligiga oid ijtimoiy-falsafiy qarashlari ko‘q qirrali ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganib chiqiladi. Maqolada nazariy-falsafiy tadqiqot turiga mansub oid bo‘lib, inda ijtimoiy g‘oyalar tarixiy jarayonlar kontrkstida tahlil qilamiz. Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan tarixiy-falsafit tahlil. Ushbu metod yordamida har bir mutafakkirning qarashlari u yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va mafkuraviy holati bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Sharq allomalari o‘z asarlarida gender rollarini ko‘proq axloqiy, ijtimoiy ma’sulyat, adolat va ma’naviy yuksaklik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqqanliklari sababli ularning qarashlari zamonaviy ijtimoiy fanlar tizimida o‘rganiladi.

Ikkinchidan, taqqoslovchi metod yordamida turli davr va makonlarda yashagan allomalarning gender masalasiga doir qarashlari o‘rganiladi. Jumladan, Farobiy, Ibn Sino, Navoiy, Rumi kabi mutafakkirlarning fikrlari o‘zaro tahlil qilinib, umumiylik va farqlar aniqlashtiriladi. Bu esa ularning genderni oid yondashuvlarida mavjud bo‘lgan konseptual uyg‘unlik va tafovutlarni aniqlashga xizmat qiladi, albatta.

Uchinchidan, mazmuniy tahlil asosida tanlab olingan asarlardagi genderni oid tushunchalar, ijtimoiy rollar, ayol va erkakning jamiyatdagi o‘rni, huquq va burchlar darajasi va kontekstual mazmuni statistik jihatdan baholanadi, albatta.

To‘rtinchidan, normativ-falsafiy tahlilda allomalar tomonidan ilgari surilgan qadriyatlar asosida ideal jamiyat modeli va undagi gender rollarining adolatli taqsimoti va tenglik mezonlari yuzasidan ilmiy xulosalarga kelinadi.

Metodologik asos sifatida gender tengligi bo‘yicha BMT, YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlarning ilmiy-nazariy hujjatlari, shuningdek, zamonaviy gender sotsiologiyasi va falsafasiga oid adabiyotlar ham tahliliy tarzda o‘rganiladi. Natijada, qadimiy manbalar bilan zamonaviy nazariyalar o‘rtasida uzviylikni ta‘minlash imkoniyati yuzaga keladi deb o‘ylayman.

Natijalar: Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, Sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy qarashlar gender tengligi masalasida boy ma‘naviy, axloqiy va nazariy asoslar yaratganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Quyida tadqiqot davomida aniqlangan asosiy natijalar tizimli tarzda yoritiladi;

1. Gender tengligi g‘oyasi qadimiy-falsafiy asoslarga ega. Gender tengligi zamonaviy tushuncha bo‘lishiga qaramay, uning asoslari Sharq mutafakkirlarining asarlarida ilgari surilgan. Jumladan Farobiy, Ibn Sino, Al-Beruniy, Navoiy, Rumiy kabi allomalar asarlarida arkak va ayolning jamiyatdagi vazifalar, axloqiy maqomi, intellektual salohiyatining tengligi kabi masalalari bevosita yoki bilvosita yoritilgan.

2. Sharq allomlari gender tengligini axloqiy-ijtimoiy muvozanat doirasida asoslashgan. Ular uchun tenglik nafaqat huquqiy yoki tashqi shakllarda, balki ma‘naviy barkamollik, fazilat, bilimga intilish, axloqiy yetuklik orqali ifodalanadi. Shuningdek, Farobiy “fazilatli jamiyat” konsepsiyasida ayollarni jamiyatning faol a‘zosi sifatida ko‘radi, Ibn Sino esa insoniy kamolotda jnsiy tafovutga e‘tibor bermagan.

3. Ayol obrazi ramziy va ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg‘un holda talqin qilingan. Navoiy va Rumiy singari adib va mutasavviflar asarlarida ayol obraziga yuksak tarzda baho berilgan. Ayol- go‘zallik, mehr, ma‘rifat, aql, fidoyilik va ruhiy poklik timsoli sifatida tasvirlashadi.

4. Allomlarning qarashlari zamonaviy gender nazariyalari bilan uyg‘unlashuvchi jihatlariga ega. Sharq mutafakkirlarining g‘oyalari hozirgi zamonaviy liberal, ijtimoiy-konstruktiv va axloqiy gender yondashuvlari bilan kesishadi albatta. Ularning qarashlarida xotin-qizlarning ta‘limi, huquqlari va jamiyatdagi faolligi g‘oyat muhim deb qaraladi va bu esa zamonaviy gender siyosati bilan hamohangdir.

5. Gender tengligiga oid qarashlar ijtimoiy adolat va umumiy taraqqiyot bilan bog‘langan. Sharq allomalarining fikricha, jamiyatning ma‘naviy va madaniy taraqqiyoti faqat erkaklar bilan emas, balki ayollarning ham faol ishtiroki orqali ta‘minlanadi, albatta. Bu tamoyil bugungi kunda inson huquqlarini ta‘minlashda dolzarb ahamiyatga ega.

6. Zamonaviy gender siyosatini boyitish uchun tarixiy-falsafiy asoslar yetarli bo‘ladi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bugungi gender siyosati va

ijtimoiy islohotlar jarayonida Sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan qadriyatlar, axloqiy tamoyillar va jamiyatt modeli muhim nazariy asos bo‘ib xizmat qiladi.

Tahlil: Sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy qarashlari insoniylik, adolat, axloq va bilim singari umumiy qadriyatlar asosida shakllangan. Bu qarashlarda gender tengligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri muhokama qilinmasa-da, ayol va erkakning jamiyatdagi o‘rni va ularning huquqiy va ma‘naviy maqomi hamda teng imkoniyatlar prinsipi kabi masalalar bilvosita aniq holda ifoda qilingan. Tahlilda asosan, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy va Ahmad Yassaviy singari mutafakkirlarning qarashlari asos bo‘ladi:

1. Abu Nasr Farobiy-ideal jamiyat va ayolning roli. Farobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida jamiyatdagi adolat va bilim asosida tashkil topgan tuzumni ideal deb hisoblaydi. U jamiyat a‘zolarining qobiliyat va axloqiy kamolotiga qarab baholanishi lavozimligini aytadi. Farobiyning fikricha, shaxsning jinsiy mansubligi emas, balki aql-idrok, bilim va aqliy yetukligi va uning ijtimoiy maqomini belgilab beradi. Bu yondashuv asosan, gender tengligining nazariy asosini yaratib beradi. Chunki, donishmand va axloqan barkamol bo‘lsa, u fozil jamiyatning yetakchi a‘zosi bo‘la oladi. Shunday qilib, Farobiy genderga asoslangan tafovutlarni inkor qilib, shaxsiy sifatlarni ustun qo‘ygan.

2. Ibn Sino-Insoniylik va ilmga intilishda tenglik. Ibn Sino asarlarida inson aqliy yetukligi, tafakkur va ma‘naviyat orqaligina komillikka erishadi, degan g‘oyani ilgari suradi. Ibn Sino o‘zining “Donishnoma” va “Kitob ash-shifo” kabi asarlarida ayol va erkak bir xil darajada tafakkur egasi bo‘lishi mumkin ekanligi nazariy ko‘rsatiladi. Ayniqsa, tibbiyot sohasidagi qarashlarida Ibn Sino ayollar salomatligi, huquqlari va psixologik xususiyatlariga alohida e‘tibor qaratgan. Bu esa uning zamonasi uchun ilg‘or yondashuv hisoblanib, zamonaviy gender huquqlari bilan bog‘liq asosiy prinsplarni belgilaydi.

3. Alisher Navoiy- ayol obrazining axloqiy-falsafiy yuksalishi. Navoiy asarlarida ayol siymosi faqat go‘zallik emas, balki donolik, fidoyilik va ma‘naviy komlot timsoli sifatida ta‘riflanadi. Masalan, “Hayrat ul- abror” dostonida ayollar ijtimoiy faoliyatda, hattoki davlat ishlarida qatnashuvchi obrazlarda tasvirlagan. Navoiy ayolni ma‘rifatli, sabrli, aql-zakovatli inson sifatida ko‘rsatadi. Bu kabilar orqali u ayollarni faqat oilaviy doirada amas, balki jamiyatning ma‘naviy va axloqiy asoslarni qabul qiluvchi kuch sifatida e‘tirof qiladi. Mening fikrimcha, Navoiy asarlarida ayolga nisbatan hurmat, mehr, e‘tibor g‘oyasi bor, albatta.

4. Jaloliddin Rumiy-ayolni ilohiy haqiqat timsoli sifatida talqin qilish. Ruminiyning tasavvufiy-falsafiy qarashlarida ayol va erkak o‘rtasidagi farq jismoniy, balki ilohiy birlik tamoyiliga asoslangan holda talqin qilinadi. U ayoni muhabbat, haqiqat va ilhom manbai deb biladi. Ayniqsa, “Masnaviy Ma‘naviy” asarida ayollar haqida ko‘plab ijobiy va chuqur ramziy fikrlarini aytib o‘tgan. Rumiy ayolning

jamiyatdagi rolini cheklamaydi, aksincha, uni komil inson sifatida qaraydi. Bu yondashuv bugungi kunda gender adolatini ruhiy-ma'naviy asoslarda ko'rishga asos bo'ladi.

5. Ahmada Yassaviy-ayolga nisbatan axloqiy hurmat. Yasaviy ta'limotida inson-ilohiy mohiyatga ega mavjudot. Uning “Hikmatlar”ida ayolga nisbatan iliq, samimiy munosabat, onaga bo'lgan cheksiz mer va hurmat, erkak va ayolning axloqiy tengligi haqidagi fikrlari mavjud. Yasaviy ayolni muqaddas zot, mehr va rahmat manbai sifatida ulug'lagan.

Xulosa: Ushbu maqoladan xulosa shuki, Sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy g'oyalar hozirgi global gender muammolarini hal qilishda qadriyatga asoslangan holda va integrativ yondashuv asosida taklif qiladi. Bular esa nafaqat tarixiy merosimiz bilan birga, zamonaviy davr bilan uyg'unlashtiradi hamda madaniy va ma'naviy asosli gender siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb qiladi. Mening fikrim shuki, Sharq allomalari gender masalasiga diniy, ma'naviy va axloqiy tamoyillar asosida yondashishgan. Hozirgi kunda gender tengligini rivojlantirishda, ayniqsa, milliy qadriyatlarga tayanilgan modelini yaratishda bu qarashlardan samarali foydalanishimiz lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov, I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat. 1997
2. Farobiy, A. N. Fozil odamlar shahri. Toshkent: fan nashriyoti. 1993
3. Ibn Sino, A. H. Donishnoma. Toshkent: Fan nashriyoti. 1980
4. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy Ma'naviy. Toshkent: 2003
5. Al-Beruniy, A. r. Hindiston. Toshkent: Fan. 1973
6. Karimov, M. Sharq falsafasi va jamiyat: gender nuqtai nazaridan. Toshkent: Ijtimoiy fanlar. 2020
7. G'ulomova, D. “Gender tengligi: Sharq an'analari va bugungi kun yondashuvlari”. 2021
8. Qodirov, B. “Sharq falsafasida ayol siymosi: tarixiy va zamonaviy talqin”. 2022
9. Yassaviy, A. Hikmatlar. Toshkent: Sharq nashriyoti. 2001
10. <https://api.scienceweb.uz>